

Asosiy kapitalga investitsiyalar

(2019 yil yanvar-sentabr oylarida)

Hisobot davrida 7 040,1 mlrd. so`m asosiy kapitalga investitsiyalar o`zlashtirilib, ularning 61,2 %i yoki 4 306,9 mlrd. so`m jalb etilgan mablag`lar hisobidan moliyalashtirilgan bo`lsa, korxona, tashkilot va aholining o`z mablag`lari hisobidan 38,8 %i yoki 2 733,2 mlrd. so`m moliyalashtirildi.

Yanvar-sentabr oylari davomida markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalar 703,2 mlrd. so`m o`zlashtirilib, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 138,7% ni tashkil etdi.



Asosiy kapitalga
investitsiyalar
jami:
7 040,1
mlrd.so`m




O'tgan yilning
mos davriga
nisbatan o'sish
sur'ati:
169,1 %



Markazlashgan
moliyalashtirish
manbalari
hisobidan:
703,2 mlrd.so`m



Markazlashmagan
moliyalashtirish
manbalari
hisobidan:
6336,9 mlrd.so`m

Asosiy kapitalga investitsiyalarning o`zlashtirilishi


Markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalarning ulushi 2,1 % punktga ko`payib, 90,0 % ni yoki 6 336,9 mlrd. so`mni tashkil etdi.

Asosiy kapitalga o`zlashtirilgan investitsiyalarning moliyalashtirish manbalari bo`yicha tarkibi

	mlrd.so`m	o'sish surati, %da	jamiga nisbatan, %da
Barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan	7040,1	169,1	100,0
Respublika byudjeti	515,3	158,6	7,3
Suv ta`minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg`armasi	53,8	160,3	0,8
O`zbekiston Respublikasi kafolati ostida xorijiy Kreditlar	134,1	112,4	1,9
Tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag`lari	928,6	94,1	13,2
To`g`ridan-to`g`ri xorijiy Investitsiya	2210,8	5,2 m	31,4
Boshqa xorijiy Investitsiya va kreditlar	464,4	-	6,6
Aholi mablag`i	1069,6	114,7	15,2
Korhona mablag'lari	1663,5	148,4	23,6

Asosiy kapitalga investitsiyalar


	Jami asosiy kapitalga,	shu jumladan moliyalashtirish manbalari bo'yicha (mlrd.so'm):					
		Respublika byudjeti	Korxona va tashkilotlarning o'z mablag'lari	Aholining o'z mablag'lari	Xorijiy investitsiya va kreditlar	Suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi	Bank kreditlari va boshqa tashkilotlarning qarz mablag'lari
Viloyat jami:	7040,1	515,3	1663,5	1069,6	2809,3	53,8	928,6
Farg'ona sh.	1246,4	112,5	484,9	121,3	388,7	-	139,0
Qo'qon sh.	441,9	70,8	178,1	41,2	113,4	-	38,4
Quvasoy sh.	533,9	0,6	57,8	33,0	187,4	-	255,1
Marg'ilon sh.	262,1	9,6	101,5	69,9	50,4	-	30,7
Oltiariq	341,3	18,6	49,5	72,8	73,2	53,8	73,3
Qo'shtepa	223,6	14,5	16,7	85,7	89,3	-	17,4
Bag'dod	182,7	9,1	8,7	31,1	34,1	-	99,7
Buvayda	178,8	9,2	30,1	47,5	80,7	-	11,3
Beshariq	910,3	22,3	17,3	72,3	786,4	-	12,0
Quva	263,1	16,2	96,0	82,9	53,2	-	14,8
Uchko'prik	298,9	7,2	57,1	25,1	162,5	-	47,0
Rishton	137,7	16,4	27,7	36,9	33,9	-	22,7
So'x	67,6	31,6	9,8	16,5	5,6	-	4,1
Toshloq	131,4	8,4	24,1	48,9	39,0	-	11,1
O'zbekiston	658,7	22,5	54,1	39,1	514,6	-	28,4
Farg'ona t	619,0	47,4	356,1	30,0	104,5	-	81,0
Dang'ara	291,5	9,5	70,8	114,6	86,8	-	9,8
Furqat	97,1	6,5	7,0	76,3	0,6	-	6,7
Yozyovon	154,1	82,4	16,2	24,5	5,0	-	26,1

Asosiy kapitalga investitsiyalarning o'sish sur'ati %da


Asosiy kapitalga investitsiyalarning hududlar kesimida yuqori o'sish sur'ati Beshariq tumanida kuzatilgan bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 9,6 martaga ko'paygan. Shuningdek, Dang'ara tumanida 2,0 m, Quva tumanida 3,0 m, Rishton tumanida 1,9 m, Bag'dod tumanida 2,6 m, O'zbekiston tumanida 5,0 m ko'paydi. Investitsiya hajmini hududlarda yuqori bo'lgani asosan investitsiya dasturidagi loyihalarni amalga oshirilishi bilan izohlanadi.




Asosiy kapitalga investitsiyalar o`zlashtirilishi
(jami hajmga nisbatan ulushi %da)



Farg'ona viloyatida asosiy kapitalga investitsiyalar o'tgan yilning mos davriga nisbatan 169,1 %ni tashkil etdi. Bu quyidagi investitsiya dasturidagi loyihlar bajarilishi bilan bog'liq.


- ("FARG'ONA YASIN QURILISH MOLLARI" mas'uliyati cheklangan jamiyati) Cement ishlab chiqarishni tashkil etish
- ("MODERNA CEMENT INDUSTRIES" mas'uliyati cheklangan jamiyati) Cement ishlab chiqarishni tashkil etish
- ("SHAFFOF OMADLI SANOAT" mas'uliyati cheklangan jamiyati) Avtomobil gaz ballonlariga butlovchi qismlar ishlab chiqarishni kengaytirish

Asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibi (jami hajmga nisbatan ulushi %da)




Farg'ona viloyati bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibida qurilish montaj ishlari bo'yicha 2791,7 mlrd. so'm o'zlashtirilgan bo'lib, jami investitsiyalarning 39,7 % ini tashkil etdi, mashina, uskuna va inventarlarga investitsiyalar 3874,1 mlrd. so'm (jami investitsiyalardagi ulushi 55,0 %) va boshqa xarajatlarga 374,3 mlrd. so'm (5,3 %) o'zlashtirildi.

Asosiy kapitalga investitsiyalarnig texnologik tarkibi (mlrd. so'mda)



Asosiy kapitalga investitsiyalarning takror ishlab chiqarish tarkibi (jami hajmdagi ulushi % da)



- Yangi qurilish
- Kengaytirish, rekonstruksiya, modernizatsiya, texnik quollantirish
- Boshqalar

Joriy davrda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning katta qismi iqtisodiyotda yangi qurilishga yo'naltirilgan. Ushbu yo'nalishdagi investitsiyalar hajmi 2 667,5 mlrd.so'mni tashkil etib, jami o'zlashtirilgan investitsiyalarning 37,9 % ni tashkil etdi.

Mavjud obyektlarni kengaytirish, rekonstruksiya qilish, modernizatsiyalash va texnik quollantirishga yo'naltirilgan investitsiyalar 2415,4 mlrd.so'mni tashkil etdi va viloyatda jami o'zlashtirilgan investitsiyalarning 34,3 % ni tashkil etdi. Qolgan 27,8 %, ya'ni 1957,2 mlrd.so'm boshqa xarajatlarga yo'naltirildi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo`yicha asosiy kapitalga investitsiyalar

	2019 yil yanvar-sentabr			
	Jami investitsiyalar		shundan: xorijiy investitsiya va kreditlar	
	mIrd.so'm	umumiyl hajmga nisbatan % da	mIrd.so'm	umumiyl hajmga nisbatan % da
Jami	7040,1	100,0	2809,3	100,0
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	695,4	9,9	107,7	3,8
Tog'-kon sanoati	812,7	11,5	788,7	28,1
Qayta ishslash sanoati	2628,1	37,3	1431,5	51,0
elektr, gaz, bug' bilan taminlash va havoni konditsiyalash	262,3	3,7	172,1	6,1
suv bilan taminlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish	87,4	1,2	4,6	0,2
Qurilish	113,6	1,6	23,0	0,8
ulgurji va chakana savdo, motorli transport vositalari va mototsikllarni tamirlash	346,0	4,9	124,8	4,4
tashish va saqlash	244,1	3,5	59,8	2,1
yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	40,9	0,6	7,2	0,3
Axborot va aloqa	44,4	0,6	36,4	1,3
moliyaviy va sug'urta faoliyati	64,9	0,9	-	-
proffesional, ilmiy va texnik faoliyat	49,9	0,7	-	-
Ta'lim	230,2	3,3	18,3	0,7
Sog'lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	137,5	2,0	15,6	0,6
Boshqa iqtisodiy faoliyat turlaridan tashqari: turar – joy binolari qurilishiga investitsiyalar	930,5	13,2	-	-
Boshqa faoliyat turlari	352,2	5,1	19,6	0,6


2019 yil
yanvar-sentabr

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo`yicha asosiy kapitalga o`zlashtirilgan
investitsiyalar (mlrd.so'm)**



Asosiy kapitalga investitsiyalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo`yicha tarkibida qayta ishslash sanoati yetakchilik qilmoqda. Ushbu tarmoqda jami moliyalashtirish manbalari hisobidan 2628,1 mlrd. so`m yoki jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning 37,3 % o`zlashtirilgan. Shuningdek, tog`-kon sanoatida 812,7 mlrd.so`m yoki jami asosiy kapitalga investitsylarning 11,5%, ulgurji va chakana savdo sohasida 346,0 mlrd.so`m yoki jami asosiy kapitalga investitsylarning 4,9%, elektr gaz bug' bilan ta'minlash va xavoni konditsiyalash sohasida 262,3 mlrd.so'm yoki jami asosiy kapitalga investitsylarning 3,7% hamda qurilish sohasida 113,6 mlrd.so'm yoki jami asosiy kapitalga investitsylarning 1,6% i o`zlashtirildi.


Asosiy kapitalga o`zlashtirilgan xorijiy investitsiya va kreditlar



Joriy davrda Viloyatda xorijiy investitsiyalar hajmi 2 809,3 mlrd so'mni tashkil etib, jami investitsiyalar hajmining 39,9 %i va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 385,3% ga o'sdi. Bunda O'zR xukumati kafolati ostida xorijiy investitsiyalar hajmi 134,1 mlrd. so'mni tashkil etib, jami investitsiyalar hajmining 1,9 %i va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 112,4% ga o'sdi. To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmi 2 210,8 mlrd.so'mni tashkil etib, jami investitsiyalar hajmining 31,4%i va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 5,2 martaga o'sdi va qolgan 464,4 mlrd.so'm boshqa manbalar hisobidan o`zlashtirildi.



Obyektlarni ishga tushirish



Ijtimoiy sohada joriy davrda jami umumiy maydoni 813,7 ming kv.m, bo`lgan 4675 ta turar joy obyektlari yangi qurilib ishga tushirilgan bo`lib, ulardan umumiy maydoni 601,9 ming kv.m. bo`lgan 3460 ta qishloq joylarda joylashgan.

Ishga tushirilgan turar joylarning hududlar kesimida ko`radigan bo`sak, eng ko`pi Dang'ara tumanida 118,5 ming kv.m. bo`lgan 812 turar joylar, ishga tushirilgan jami umumiy maydonning 14,6 % ni tashkil etdi. Keyingi o`rinlarda Qo'shtepa tumanida 109,0 ming.kv.m bo`lgan 537 ta turar joylar ishga tushirilgan jami umumiy maydonning 13,4 % i, Farg'ona shahrida 89,3 ming.kv.m bo`lgan 545 ta turar joylar, Quva, tumanida 78,1 ming.kv.m bo`lgan 505 ta turar joylar, foydalanishga qabul qilingan. Shuningdek, eng kam turar joy Farg'ona tumanida ishga tushirilgan bo`lib, viloyatdagi ulushi 2,5 %ni tashkil etdi.

Namunaviy loyihalar asosida umumiy maydoni 58,3 ming kv.m. 196 ta turar joy qurib bitkazilib, ishga tushirildi.

**Foydalanishga topshirilgan namunaviy loyihalar asosida
qurilgan uy-joylar**

	<i>Namunaviy uy-joylar</i>		
	<i>mln.so`m</i>	<i>soni</i>	<i>ming kv.m</i>
Viloyat jami	231 190,6	196	58,3
<i>shaxarlar:</i>			
Farg'ona	15 756,5	4	8,9
Qo'qon	17,1	-	-
Quvasoy	28 566,2	14	9,0
Marg'ilon	-	-	-
<i>tumanlar:</i>			
Oltiariq	9 944,7	12	1,6
Qo`shtepa	7 321,7	8	1,1
Bag'dod	7 388,0	-	-
Buvayda	12 995,0	12	1,6
Beshariq	7 976,9	-	-
Quva	5 331,0	-	-
Uchko`prik	8 083,3	13	2,7
Rishton	12 047,0	12	3,6
So`x	4 992,3	1	1,1
Toshloq	5 366,1	12	1,6
O`zbekiston	7 561,4	10	1,3
Farg`ona t.	75 340,7	61	19,9
Dang`ara	7 289,2	12	1,6
Furqat	7 516,0	1	1,1
Yozyovon	7 697,5	24	3,2

Fargo'na viloyat xaritasi



**Investitsiya va qurilish statistikasi
bo'limi**

Nashr uchun mas'ul: O'.Umarov

Aloqa telefoni: 0373 241-98-42